

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'TKAZILADIGAN DIDAKTIK O'YINLAR

Nurillayev Samad Safarovich

O'zbekiton- Finlandiya pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

Hamrayeva Dilafro'z Ilhom qizi

O'zbekiton- Finlandiya pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'tkaziladigan didaktik o'yinlar orqali dars o'tishning samaradorligi haqida ma'lumot bayon etilgan.*

Kalit so'zlar. *Konstruktiv, didaktik,, sonli ifodalar, o'zgaruvchili ifodalar, komponent, syujetli-rolli*

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida o'tkaziladigan didaktik o'yinlar orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Bunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga fan asoslarini, ayniqsa, matematika fanini o'rgatish o'ziga xos qiyin kechadi. Jumladan, birinchi sinfga qabul qilingan bolalarga matematika fanini o'rgatish o'qituvchida murakkabliklar tugdiradi. Chunki, birinchi sinf o'quvchilarning matematika fani tushunchalarini o'zlashtirishga bo'lgan tayyorgarlik darajalari bir-biridan farq qiladi. Ba'zi bolalar, bog'chalarning maktabga tayyorlov guruhlaridan, ba'zi birlari oilalardan to'g'ridan-to'g'ri keladilar. Oilalardan kelganlarning ham tayyorgarlik darajasi turlicha bo'ladi. O'qishga munosabati ijobiy bo'lgan oilalardan kelgan bolalarda matematika fanini o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchliroq bo'ladi.

Bolalar bilimidagi va ularning fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlaridagi turli-tumanlik kichik yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Bu esa o'qituvchilardan o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, bu mas'uliyat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Har bir darsga dars mavzulari va o'quvchilar bilim darajalaridan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollardan foydalanishda.
2. Dars davomida darsning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, didaktik uyinlardan foydalanishda

O'yin bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola bilim va ma'lumot oladi. O'yin jarayonida bola faqat tashqi muhit hodisalari bilan tanishib uni his etib qolmasdan balki voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildiradi. O'yin bola faoliyatida ijodkorlikni yanada boyitib aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda muhim hisoblanadi.

O'yinning turlari juda ko'p bo'lib aksariyat bolalar faoliyatida didaktik o'yin faoliyati ko'proq uchraydi.

Didaktik o'yinlar xilma-xil materiallar asosida tashkil qilinib, ular bolalarning aqliy va jismoniy kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'lli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim – tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqot olib borishiga asos bo'ldi. Natijada oldingi asrning 60-yillari boshida AQSH so'ngra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o'yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939- yilda A.F. Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan : doiraviy misollar o'yinida ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalariga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning ta'lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i – o'qituvchining

bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni natijasi.

1. O'yin qoidalari. O'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o'yin maqsadidagi mos holda o'quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo'ladi.

2. O'yin mazmuni o'quvchilarning bajarishi kerak bo'lgan harakatlari bilan aniqlanadi, kimyo darsida bu harakatlar ko'proq misol va tajriba masalalar yechishdan iborat bo'ladi. O'yin jihozi o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan predmet – modellar real va shartli predmetlar, kartochka va ko'rgazmalardan iborat.

3. O'yin natijasi. Qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o'quvchilarni qoniqtirishi kerak

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari

	Mavzu	mazmuni		
Didaktik o'yinli mashg'ulotlar	qanday mazkur mashg'ulotdan foydalaniladi.	bo'lganda	Mashg'ulotlarning didaktik funksiyalari.	Talabaning faoliyati
Syujetli-rolli	Fanning soxalarida kiritilgan yoritish, bog'lanishlarni oshirish, vakundalik muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda.	turli qo'lga yutuqlarni fanlararo amalga tabiatdagi hayotdagi imkoniyati bo'lganda.	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat obektlari va tabiiy xodisalar o'rtasidagi aloqalar bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish.	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko'nikmalarni egallash.
Ijodiy o'yinlar	Avval o'zlashtirilgan bilm va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda.	o'zlashtirilgan bilm va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish.	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilm va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish.	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish.
	Turli obektlarga tavsif	Jamiatdagi ishtimoiy-		Auksonda

Ishbilarmon- berish, ularni iqtisodiy ishtirok etish
 lar o'yini taqqoslash imkoniyati munosabatlar orqali yangi
 auksion bo'lganda asosida mavzuni
 talabalarning o'zlashtirish.
 dunyo qarashini
 kengaytirish,

Boshlang'ich ta'lim matematika darslari qo'llaniladigan didaktik o'yinlar

Quyida keltirilib o'tayotgan didaktik o'yinlarimiz bolalar bilan ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kerakli vosita bo'la oladi va didaktik o'yinlar asosida dars o'tish bugungi kunda ancha yaxshi natija bermoqda.


«Zinama-zina» o'yini

Didaktik topshiriq: o'quvchilar amallarni tartib bilan to'g'ri va tez hisoblashini mustahkamlash.

O'yin topshirig'i: topshiriqlarni pog'onama-pog'ona bajarishda kim g'olibligini aniqlash.

O'yin bayoni: O'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish va fikrlarini charxlashda sonlar tartibi, sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga oid tushunchalarini mustahkamlash.

O'quvchilar sonlar ketma-ketligi, ularni taqqoslash uslublarini puxta egallavdilar.



Xulosa qilib aytish kerakki didaktik o'yinlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitish bir muncha samarali deb o'ylaymiz chunki yuqorida ko'rsatilgan metodlar orqali o'yinlarni tashkil etilsa o'quvchilarni masalalarni yechishni o'rganish natijasi yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M. E. Jumayev . Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T, O'qituvchi. 2003-y.
- 2.Q. N. Tursunov va boshqalar . Boshlang'ich sinflarga matematika o'qitish metodikasi.(ma'ruzalar matni , amaliy mashg'ulotlar uchun ishlanmalar) Sam. Du .2008-y.
3. Q. N Tursunov va boshqalar Boshlang'ich sinf matematika darslarida tarbiyaviy vazifalarni xal qilish. Ziyokor .N 10. 2010-y.
- 4.Boshlang'ich ta'limning matematika darslari. T. O'qituvchi .2008-y.
- 4.Q. N. Tursunov , Sh. Toshmurodov Boshlang'ich sinflarning matematika darslarida iqtisodiy tabiya . Ziyokor. N.1. 2010-y.
- 5.O. T. G'offurova . Interfaol metodlar ta'lim standartlari. B/t. 2008.N.6.
- 6.R. Safarova , 21-asr pedagogikasining dolzarb vazofalari Xalq ta'limi 2007-y. N. 2. 4-7 bet.
- 7.I. To'xtaxadjayev , Pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish . Xalq ta'limi .2006. N. 4.